

TURIZM INDUSTRIYASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI Mirzayev Q.J.

SamISI, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası mudiri, i.f.d., professor

Maxmanazarov S.F.

SamISI magistranti

Annotatsiya: Ziyorat turizmi dunyoning ko'plab davlatlarida rivojlanayotgan muhim turizm yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Saudiya Arabistoni, Eron, Hindiston, Isroil va Turkiyaning ziyorat turizmini rivojlantirish tajribalari tahlil qilinadi. Xorijiy tajriba asosida ziyoratchilar uchun infratuzilmani rivojlantirish, raqamlashtirish, maxsus turistik vizalar joriy etish va madaniy merosni targ'ib qilish kabi samarali usullar ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvlar O'zbekistonda ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, haj, umra, infratuzilma, raqamlashtirish, diniy meros, maxsus vizalar, xorijiy tajriba, sayyohlik, turizm rivojlanishi.

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanishi, uning yangi imkoniyatlarini amalga oshirish, turizm industriyasini zamonaviy bosqichga aylantirish, turizm infratuzilmalarini shakllantirishda xorij tajribalaridan samarali foydalanish asosiy dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda. Buning asosiy maqsadi turizm sohasining YaIM ulushini oshirish, iqtisodiyotning drayver sohaslaridan biriga aylantirish hisoblanadi.

Bu borada davlatimiz rahbarining 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102 sonli Farmoni ham aynan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy turistlarning oqimini oshirishga qaratilgan vazifa va topshiriqlar, chora-tadbirlarni belgilab bergan. Qolaversa, mamlakatimiz hududlarida yangi turizm industriyasi obyektlarini ko'paytirish orqali qulay sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon bozorida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, ichki turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transport logistikasidagi mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish asosiy maqsadlar ekanligini alohida ta'kidlash zarur va bu tadqiqotimizning dolzarbligini oshiradi.

Asosiy qism: Bundan ko'rinib turibdiki, turizm industriyasida ziyorat turizmining ahamiyatini oshirish, xorij tajribalaridan foydalangan holda maqsadli dasturlarni qabul qilish zaruratini uyg'otadi. Qolaversa, mamlakatimizda asosiy turistlarning maqsadi tarixiy obyektlarni va manzillarni kelib ko'rish va ziyorat qilish hisoblangani ham ushbu turizm tarmog'ini rivojlantirish masalalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ziyorat turizmi - turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi ahamiyatini ikki xususiyatga ko'ra asoslash mumkin: ziyorat turizmi ziyoratgoh uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyoratchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim? Ziyorat ko'plab insonlar uchun qiyin paytlarda ruhiy ozuqa olish imkoniyati hamdir. Insonlar diniy ma'rifatni his qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko'pincha uzoq va ba'zan qiyin bo'lgan sayohat insonlar uchun fikr yuritish imkoniyatidir. Ziyoratlar din bilan munosabatlarni chuqurlashtirishning bir usuli bo'lishi mumkin. Bu, albatta, e'tiqodga qanchalik sadoqatli ekanligini ko'rsatishning bir usuli va bu dinning o'zi haqida ko'proq bilish imkoniyatidir. Sayohat shakli sifatida ziyorat odamlarga muqaddas joylarni ziyorat qilish imkoniyatini beradi. Diniy maqsadlarda sayohat qiluvchi sayohatchi -muqaddas joylar va diniy markazlarni ziyorat qilish uchun olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga doimiy yashash mamlakatidan tashqariga chiqadigan shaxs tushuniladi. Diniy turizm deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat

qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat tushunilishi kerak.

O'zbekiston hududida boshqa dinlar singari islom madaniyati va uning so'fiylik oqimiga oid ko'plab muqaddas joylar mavjud. Eng qimmatbaho yodgorliklar YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan. Ular orasida Islom olamida Muborak Buxoro ma'nosini anglatuvchi Buxoroyi-Sharif deb nomlangan Buxoro shahri. Ko'plab bebaho yodgorliklarga ega Samarqand shahri. Amir Temurning vatani hisoblanmish Shahrisabz shahri. Albatta, bu shaharlar qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, butun hayoti davomida jiddiy o'zgarishlarga duch keldi.

Mangulik, abadiylik g'oyasi ushbu shaharlar bilan bog'liqdir. Muhammad payg'ambarning tarjimai hollarida bir voqea bor. Payg'ambar me'roj qiladi. Uning samoviy oti bor edi va u o'sha otda osmonga ko'tariladi. Avval Quddusga, so'ngra Makkaga tashrif buyuradi. Makkaga qarab, quyosh nurlari butun dunyoni yoritayotganini ko'radi. Keyin u yer yuzida faqat ikkita nuqtani ko'radi, bu nurlar pastdan yuqoriga ko'tarildi. Bu nurlar Buxoro va Samarqand edi.

Jahon brendlarining faol ishtiroki bilan ushbu sektorda biz turizm, ekologik ma'rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va boshqa sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Shu munosabat bilan biz davlat va xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz kerak. Samarqand, Buxoro, Xorazim, Surxondaryo va Toshkentdagi muqaddas qadamjolarini va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "Kichik haj" dasturini ishlab chiqish va tezlashtirish zarur. Shuningdek, ichki va ziyorat turizmi sohasida keng ko'lamli imkoniyatlarni to'liq ishga tushirish zarur.

So'ngi yillarda turizm sohasi tomonidan O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Turizm sohasi vakillari ichki va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha choralarni ko'rishmoqda, birinchi navbatda, mamlakatimiz hududlaridagi turizm infratuzilmasini yaxshilashga doir faol ishlar olib borilmoqda. COVID-19 bilan bog'liq global pandemiya va undan keyin turizm sanoatida yuz bergan butunjahon inqirozdan oldin bizning yurtimizga tashrif buyurishni istagan sayyohlar oqimi kattaligi tufayli O'zbekiston mehmondo'stlik sanoati joylar yetishmasligi va transport xizmatlarini ko'rsatishda qiyinchiliklarga duch keldi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o'zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar.

Ziyorat turizmi dunyoning ko'plab davlatlarida muhim turizm yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishida xorij tajribasi muhim ahamiyatga ega. Quyida ayrim yetakchi davlatlarning ziyorat turizmini rivojlantirishdagi tajribalariga to'xtalib o'tamiz:

1-jadval

Ziyorat turizmini rivojlantirishda xorij tajribalari

No	Xorij tajribalari	Mazmuni	Imkoniyatlari
1.	Saudiya Arabistoni tajribasi	Saudiya Arabistoni ziyorat turizmi bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Haj va Umra ibodatlarini sababli millionlab musulmon sayyohlarni qabul qiladi.	Raqamlashtirish: Haj va Umra xizmatlarini onlayn bron qilish va viza jarayonlarini tezlashtirish maqsadida elektron tizimlar joriy etilgan. Infratuzilma rivoji: Makkadagi "Harami Sharif" atrofida mehmonxonalar, transport tizimi va zamonaviy logistika rivojlantirilgan. Maxsus vizalar: Umra va ziyorat maqsadida alohida turistik vizalar taqdim etilmoqda.
2.	Eron tajribasi	Eron ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Mashhad va Qum kabi shaharlar Islom olamidagi muhim diniy	Mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash: Ziyoratchilar uchun mehmonxonalar, restoranlar va yo'lovchi transport xizmatlari subsidiyalanadi. Tarixiy va diniy merosni targ'ib qilish: Ziyorat bilan bog'liq tarixiy joylar xalqaro miqyosda

		markazlardan hisoblanadi.	ommalashtirilmoqda.
3.	Hindiston tajribasi	Hindiston turli dinlarga mansub ziyoratchilarni jalb qilish bo'yicha katta tajribaga ega.	Viza yengilliklari: Turli diniy ziyoratlar uchun maxsus vizalar joriy qilingan. Turistik yo'nalishlarni rivojlantirish: Buddist, hind, islom va xristian ziyorat maskanlari uchun maxsus yo'nalishlar yaratilib, ular atrofida xizmat ko'rsatish infratuzilmalari rivojlantirilmoqda.
4.	Isroil tajribasi	Isroil dunyoning eng muqaddas ziyorat joylaridan biri hisoblanadi va turli dinlarga mansub sayyohlarni jalb qiladi.	Ziyorat turizmini integratsiyalash: Diniy yo'nalishlarni madaniy va tarixiy turizm bilan bog'lash orqali ziyorat turizmi rivojlantirilgan. Texnologik yondashuv: Masjid Al-Aqso, Ilyos tog'i va boshqa joylarga onlayn bron qilish va raqamli yo'riqnomalar joriy etilgan.
4.	Turkiya tajribasi	Turkiya ham musulmon, ham xristian ziyoratchilar uchun muhim manzil hisoblanadi.	Zamonaviy infratuzilma: Istanbul, Konya va Bursa shaharlarida diniy turizm markazlari zamonaviy talablar asosida rivojlantirilgan. Reklama va targ'ibot: Turkiya hukumati va xususiy sektor diniy sayohatlarni faol reklama qilishadi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda ham ziyorat turizmining imkoniyatlari juda keng. Ulardan samarali foydalanish asosida turizm salohiyatini oshirish, YaIM da turizmning ulushini ko'paytirish, turizm sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlar sonini oshirish hamda ularning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Albatta, bularning barchasi xorij tajribalaridan samarali qo'llash va foydalanish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar: Ziyorat turizmi dunyoning ko'plab davlatlarida turizm sanoatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat diniy ahamiyatga, balki iqtisodiy rivojlanish uchun ham katta salohiyatga ega. Saudiya Arabistoni, Eron, Hindiston, Isroil va Turkiyaning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zamonaviy infratuzilmani yaratish, raqamlashtirish, maxsus turistik vizalar joriy etish va madaniy merosni keng targ'ib qilish muhim hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ziyoratchilar sonining oshishiga, balki ularning qulay va xavfsiz sayohat qilishiga ham xizmat qiladi.

Ziyorat turizmini rivojlantirishda xorijiy tajribadan quyidagi jihatlar o'rganilishi mumkin:

1. Raqamlashtirish va onlayn xizmatlarni rivojlantirish: Ziyoratchilar uchun vizalar, mehmonxona bron qilish va yo'riqnoma xizmatlarini onlayn shaklda taklif etish.

2. Transport va infratuzilmani takomillashtirish: Ziyorat maskanlariga olib boruvchi yo'llarni yaxshilash, yangi mehmonxonalar va turistik xizmatlarni tashkil etish.

3. Maxsus turistik vizalar tizimini soddalashtirish: Ziyorat uchun kelayotgan sayyohlar uchun alohida viza dasturlarini ishlab chiqish.

4. Madaniy va diniy merosni keng targ'ib qilish: Xalqaro ko'rgazmalar, hujjatli filmlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ziyorat turizmining ahamiyatini oshirish.

5. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish: Xususiy sektor ishtirokida yangi mehmonxona va xizmatlar tashkil qilishga investitsiyalar jalb qilish.

Ushbu tajribalar O'zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirishda foydali bo'lishi mumkin. Bu esa, shubhasiz, mamlakatimizdagi aholi farovonligi darajasining oshishiga turtki beradi. Ayni paytda biz bor kuchimizni ichki va mahalliy turizm va ziyorat turizmini rivojlantirishga yo'naltirishimiz kerak. Xorijlik sayyohlarni jalb qilish mamlakatimizda sayohat xavfsizligi sharoitlarining yaratilishi bilan bog'liq bo'ladi. Muvaffaqiyat Vatanimiz ravnaqi yo'lida olib borilayotgan sa'y-harakatlarimizga bog'liq bo'ladi. Biz guvohi bo'lgan turizm sohasidagi islohotlarning dinamikasi va so'ngi yillarda erishilgan yutuqlar buni isbotladi. Barchamiz birga O'zbekistonning tez orada turizm yo'nalishida dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga bor hissamizni qo'shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102 sonli Farmoni.
2. Ana Maria Campon-Cerro, J. M.-M.-F. (2019). Best Practices in Hospitality and Tourism Marketing and Management. Springer Link.
3. Huaxia. (2021). Uzbekistan expects int'l tourists to return after pandemic. In Xinhua, www.xinhuanet.com (p. China). Xinhua: 2021-02-14 16:47:38.
4. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. In J. o. Marketing, Journal of International Business Research and Marketing (p. Uzbekistan). Tashkent: September, 2020.
5. Mustanov N., Mirobidova D., Azamatova S., Toshpo'latova M. (2021). O'zbekistonda ziyorat turizmi va ichki turizmning rivojlanish tamoyillari hamda turizmning pandemiya bilan bog'liqligi // Экономика и социум. №5-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-ziyosat-turizmi-va-ichki-turizmning-rivojlanish-tamoyillari-hamda-turizmning-pandemiya-bilan-bog-liqligi>

O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra mudiri
iqtisodiyot fanlari doktori (DsC), professor,
aa_eshtaev72@mail.ru

Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li

Tayanch doktorant, daston_kamilov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror turizm tushunchasining mohiyati, **asoslarini takomillashtirish** yo'nalishlarini belgilangan, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish asosida sohaning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish va xorij tajribasini o'rganish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turist, xalqaro va ichki turizm, barqaror turizm, yashil turizm, ekologik turizm, chora-tadbirlar, infratuzilma.

Abstract: This article tells us about the essence of the concept of sustainable tourism, areas for improving its foundations, and presents proposals and recommendations for identifying areas of development in the sector and studying foreign experience based on an analysis of the work being done in our country in this regard.

Key words: tourism, tourist, international and domestic tourism, sustainable tourism, green tourism, ecotourism, events, infrastructure

Kirish: Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, iqtisodiy raqobat kurash kurashlariga qaramasdan turizm industriyasi iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Bunda barcha davlatlar o'zi uchun qulay bo'lgan turizm yo'nalishini, ya'ni bozorda mavqeini egallashga, xizmatlar ko'rsatishning har tomonlama qulay bo'lgan yo'nalishlarini tanlashga harakat qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri turizm sohasi rivojlangan davlatlar uning serdaromad sohalardan biri ekanligi, ya'ni turizmda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo'liga ish haqi bo'lib borishi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmasligi, qolaversa turizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida yangi ish o'rinlarini yaratishda namoyon bo'lishi, ya'ni turizmda yaratilgan 1 ta ish o'rni boshqa sohalarda qo'shimcha 2 ta ish o'rnini yaratilishiga olib kelishini to'g'ri anglab yetmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivojlanishi transport, mehmonxona biznesi, umumiy ovqatlanish xizmatlari va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'sishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, mahalliy aholining turizm orqali barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi ichki bozor faollashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatlar turizm sohasida investitsiyalar hajmini oshirish orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki madaniy merosning saqlanishi va ekoturizmning rivojlanishiga ham erishmoqda.